

TASVIRIY SAN'AT TA'LIMIDA KOMPOZITSION FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Karshiboyeva Dilafruz Boxodirovna

Stajyor o'qituvchi

Xudoyberdiyeva Kamola Furqatjon qizi

Rangtasvir: dastgohli ta'lim yo'nalishi talabasi Guliston davlat universiteti

karshiboyeva89@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tasviriy san'at ta'lim jarayonida kompozitsion fikrlashni rivojlantirishning nazariy va metodik jihatlari yoritiladi. Kompozitsiya badiiy tafakkurning tashkiliy asosi sifatida talabalarning estetik didi, obrazli tafakkuri va ijodiy mustaqilligini shakllantirishdagi roli tahlil etiladi. Shuningdek, kompozitsion tafakkurni bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlar taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *kompozitsiya, kompozitsion tafakkur, kreativlik, badiiy ta'lim, metodika, estetik ong.*

Kompozitsiyada ilmiy uslubiy asoslash imkoni yo'q deyish ajabga loyiq, chunki odatga ko'ra tasviriy san'atda va shular qatori dastgohli rangtasvirda kompozitsiya avvalo tafakkurga tayanadi...

A.A.Deneyka (1899-1956)

Kirish. Tasviriy san'at ta'limi faqat tasvirlash texnikasini o'rgatish bilan cheklanmaydi balki, u fikrlash madaniyatini shakllantirish jarayonidir. Ayniqsa, kompozitsiya fani talabaning badiiy tafakkurini tizimlashtiradi, tasviriy elementlar o'rtasidagi munosabatni anglashga o'rgatadi va obraz yaratish jarayoniga ongli yondashuvni shakllantiradi.

Kompozitsion fikrlash bu shakl, rang, makon va nisbatlarni muayyan g'oya atrofida uyg'unlashtirish qobiliyatidir. U tasvirni mexanik joylashtirish emas, balki ma'no va ifodaning ichki mantiqini qurish jarayonidir. Shu jihatdan kompozitsiya talabaning ijodiy faoliyatida nazariy asos va amaliy mezon vazifasini bajaradi. Kompozitsion fikrlash bir necha o'zaro bog'liq komponentlardan tarkib topadi:

- Tashkiliy tafakkur – asar yaratilishida kompozitsion elementlarini muvozanat va ritm asosida joylashtirish;
- Obrazli tafakkur – g'oyani vizual timsolga aylantirish;
- Tahliliy yondashuv – shakl va rang munosabatlarini mantiqan asoslash;
- Transformatsion yondashuv – mavjud shakllarni yangicha talqinda qayta qurish.

Mazkur komponentlarning uyg'unligi talabaning mustaqil kompozitsion qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. Kompozitsion tafakkur rivojlangan shaxs tasviriy muammolarni tizimli hal eta oladi.

Adabiyotlar tahlili. Kompozitsiya nafaqat tashkiliy mexanizm, balki emotsional ta'sir vositasidir. Simmetriya barqarorlik hissini uyg'otsa, asimmetriya dinamika va harakatni ifodalaydi. Ranglar esa obrazning ruhiy ohangini belgilaydi. Masalan, Leonardo da Vinchining mashhur asari Mona Lisa kompozitsion uyg'unlik orqali ichki sokinlik va sirli ifodani yuzaga keltiradi. Markaziy joylashuv, fon va figura o'rtasidagi muvozanat asarning badiiy yaxlitligini ta'minlaydi. Shuningdek, kubizm asoschisi Pablo Picasso kompozitsion qurilishni an'anaviy tasvirdan chiqarib, shakl va makonni yangicha mantiq asosida qayta tashkil etdi. Bu yondashuv kompozitsiyaning ijodiy erkinlik manbai ekanini ko'rsatadi.

Muhokama. Talabalarda kompozitsion fikrlashni shakllantirish quyidagi metodik tamoyillarga tayanadi:

Ongli yondashuv - ya'ni har bir tasviriy qaror ma'no va g'oyaga xizmat qilishi kerak. Talaba nimani va nima sababdan joylashtirayotganini anglab ishlashi zarur.

Izchillik tamoyili - bu oddiy geometrik shakllardan murakkab syujetli kompozitsiyalargacha bosqichma-bosqich o'tish o'quv jarayonida mantiqiylikni ta'minlaydi.

Muammoli vaziyatlar yaratish - bunda o'qituvchi tayyor sxemalar emas, balki mustaqil izlanishga undovchi topshiriqlar ijodiy tafakkurni faollashtiradi.

Refleksiv tahlil - ushbu pedagogic yondashuv talabalarining bajarilgan ishni muhokama qilish, kamchilik va ustun tomonlarini aniqlash talabaning o'z ustida ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Talabalarining ijodiy-kreativ fikrlash qobiliyatlarini yanada takomilashtirish uchun taklif etilayotgan metodik bosqichlar quyidagicha:

Tahliliy kuzatish bosqichi - talaba dastavval san'at asarlari va real obyektlarning kompozitsion tuzilishini kuzatishi va o'rganishi;

Eksperimental izlanish bosqichi - shakl va ranglar bilan tajriba o'tkazishi, asar mohiyatini his etishi hamda turli variantlar yaratishi;

Mustaqil loyihalash bosqichi - berilgan mavzu asosida kompozitsion yechim ishlab chiqishi;

Baholash va takomillashtirish bosqichi - bajarilgan ishni tahlil qilish va kompozitsion yaxlitlikni kuchaytirishi;

Bu jarayon talabaning tasviriy tafakkurini reproduktiv darajadan kreativ darajaga olib chiqadi.

Natijalar. Tadqiqot jarayonida kompozitsion fikrlashni shakllantirishga yo'naltirilgan metodik tizim tajriba-sinov mashg'ulotlari asosida amaliyotga joriy etildi. Jarayon davomida talabalar ishlarining kompozitsion tuzilishi, g'oyaviy aniqligi, obrazli ifodaviyligi hamda mustaqil qaror qabul qilish darajasi mezonlar asosida tahlil qilindi. Tajriba yakunida quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatildi:

1. Kompozitsion yaxlitlikning shakllanishi ya'ni, boshlang'ich bosqichda talabalar ishlarida elementlarning tarqoqligi, markazning noaniqligi va ortiqcha detallar kuzatilgan bo'lsa, metodik mashg'ulotlardan so'ng tasviriy elementlar o'rtasidagi ichki

bog'liqlik kuchaydi. Talabalar kompozitsion markazni aniqlash va ikkinchi darajali qismlarni unga bo'ysundirish ko'nikmasini egalladilar.

2. Vizual tahlil ko'nikmasining rivojlanishi bunda talabalar nafaqat o'z ishlarini, balki mashhur san'at asarlarini ham strukturaviy tahlil qila boshladilar. Ular muvozanat, ritm, kontrast va proporsiya kabi tushunchalarni nazariy darajada emas, balki amaliy mezon sifatida qo'llashni o'rgandilar. Bu esa ularning badiiy idrokini sezilarli darajada chuqurlashtirdi.

3. Ijodiy mustaqillikning ortishi - metodik model asosida tashkil etilgan muammoli topshiriqlar talabalarining stereotip fikrlash doirasini kengaytirdi. Bir mavzu yuzasidan bir nechta kompozitsion variant ishlab chiqish vazifasi ularni izlanishga, tajriba qilishga va yangicha yechim topishga undadi. Natijada reproduktiv yondashuv o'rnini kreativ tafakkur egallay boshladi.

4. Rang va shakl uyg'unligiga ongli yondashuv – bunda ajriba davomida talabalar rang tanlashda tasodifiylikdan voz kechib, psixologik va mazmuniy asosga tayangan holda qaror qabul qila boshladilar. Rang kontrasti, kolorit yaxlitligi va yorug'-soya nisbatlari ongli ravishda boshqarildi. Bu esa asarlarning emotsional ta'sir kuchini oshirdi.

5. Refleksiv fikrlashning shakllanishi. Har bir mashg'ulot yakunida o'tkazilgan muhokamalar talabalarda o'z ishiga tanqidiy yondashish madaniyatini rivojlantirdi. Ular kompozitsion kamchiliklarni mustaqil aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini taklif qilishga o'rgandilar. Bu esa professional o'sishning muhim omili sifatida namoyon bo'ldi.

6. Estetik did va obrazli tafakkurning mustahkamlanishi. Kompozitsion mashqlar tizimli qo'llanilganda talabalarining estetik mezonlari barqarorlashdi. Tasviriy ifodada mazmuniy aniqlik, obrazda g'oyaviy izchillik va umumiy kompozitsion madaniyat oshdi. Ular tasvirni shunchaki chizish emas, balki qurish va asoslash zarurligini anglab yetdilar.

Olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, kompozitsion fikrlashni bosqichma-bosqich shakllantirish modeli talabalarining: analitik tafakkurini, kreativ yondashuvini, vizual savodxonligini, estetik ongini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega.

Natijada kompozitsiya fani talabalarda nafaqat texnik mahorat, balki ijodiy mas'uliyat va badiiy tafakkur madaniyatini shakllantiruvchi muhim pedagogik vositaga aylandi.

Xulosa. Tasviriy san'at ta'limida kompozitsion fikrlashni shakllantirish metodik jihatdan izchil tashkil etilganda, talabaning ijodiy salohiyati yanada faollashadi. Kompozitsiya badiiy asarning tashkiliy asosi bo'lish bilan birga, ijodkorning ichki dunyosini ifodalovchi vositaga aylanadi.

Shunday ekan, kompozitsiya ta'lim jarayonida faqat nazariy bilim sifatida emas, balki fikrlash madaniyatini shakllantiruvchi fundamental mexanizm sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alikulovich B.A. BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 16. – C. 383-385.
2. Alikulovich B. A. Development of professional competence of the pedagogue through visual means //American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157). – 2023. – T. 1. – C. 438-442.
3. Xamidov D. THE IMPORTANCE OF TEACHING //ENGINEERING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS" IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS." International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING. – 2024. – T. 4. – C. 320-323.
4. Allaberdiyevich U. B. Tasviriy san'atda innovatsion texnologiyalar: zamonaviy yondashuv va yangi imkoniyatlar. Iqro indexing, 16 (01), 374-378 [электронный ресурс].
5. Xoljigitovich m. I. Interyerda koshinli bezak turlaridan foydalanishning afzalliklari //masters. – 2025. – T. 3. – №. 3. – C. 41-46.
6. Kazakbayevich K.E., Baxromjon o'g'li A. B. Farg'ona vodiysi kulolchiligi an'analari //theory and analytical aspects of recent research. – 2025. – T. 3. – №. 35. – C. 94-101.
7. Sherjonov S. et al. Economic analysis of green buildings certification systems in emerging economies //Archives for Technical Sciences. – 2025. – T. 2. – №. 33. – C. 463-471.
8. Karshiboeva D.B. THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE METHODS IN TEACHING COMPOSITION // Экономика и социум. 2025. №3-1 (130). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-importance-of-innovative-methods-in-teaching-composition> (дата обращения: 14.02.2026).
9. Karshiboeva D.B. THE ROLE OF COMPOSITION IN ACTIVATION OF CREATIVE ABILITIES // Экономика и социум. 2025. №3-1 (130). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-role-of-composition-in-activation-of-creative-abilities> (дата обращения: 14.02.2026).
10. Boxodirovna K. D. KOMPOZITSIYANING O'ZIGA XOS QONUNIYATLARI VA ULARNING AHAMIYATI //MASTERS. – 2025. – T. 3. – №. 2. – C. 137-141.
11. Boxodirovna K. D. KOMPOZITSIYA FANINI O'QITISHDAGI INNOVATSION USULLARINING AHAMIYATI //YOSH OLIMLAR, MAGISTR VA IQTIDORLI TALABALARNING ILMIY FAOLIYATINI OSHIRISHDA ULARGA QARATILGAN KREATIV G'OYALAR, YECHIM VA TAKLIFLAR. – 2025. – T. 3. – №. 26. – C. 35-39.